



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№6(6)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 248 sahifa,  
22-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

“Kitobxonlar klubi” modelining ingliz tili to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	10
<b>Madaminova Gulzira Gulamkadirovna</b>	
Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida suggestiv yondashuvning o‘rni .....	14
<b>Arolov Davronjon Davlataliyevich</b>	
Akmeologik yondashuv asosida maktabgacha ta‘lim direktor o‘rinbosarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish .....	19
<b>Asatullayeva Sitora Dilmurod qizi</b>	
Hozirgi o‘zbek tilida neologizmlarning tarixi va bugungi kun taraqqiyoti.....	22
<b>Bektosheva Mehinbonu Abdumalik qizi</b>	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	26
<b>Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi</b>	
Korpus lingvistikasi vositalari yordamida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til tahlili ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	30
<b>Eshonqulova Sarvinoz Yashinovna</b>	
Talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda sun‘iy intellektning o‘rni va ahamiyati.....	35
<b>Hojiyeva Nasiba Bahodirovna</b>	
Logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etish va rejalashtirish moduliga oid mustaqil ta‘lim topshiriqlarini integrativ modellashtirishning innovatsion texnologiyalari.....	39
<b>Ibroximova O‘g‘iloy Inomjon qizi</b>	
Jismoniy tarbiya darslarida ortiqcha vaznli bolalarga differensial yondashuvning ahamiyati .....	43
<b>Yuldashev Bobirjon Noibjon o‘g‘li</b>	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotida xalq og‘zaki ijodi vositasida bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishning ahamiyati.....	48
<b>Muradxanova Munisaxon Ikrom qizi</b>	
Bo‘lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari .....	54
<b>Nusratova Mexriniso Baxshilloevna</b>	
Inklyuziv ta‘lim tushunchasi va uning zamonaviy pedagogik paradigmalar tizimidagi o‘rni.....	59
<b>Pulatova Dilfuza Azamkulovna</b>	
Magistrlarda “Imposter sindromi”ni yengish orqali kreativ salohiyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.....	66
<b>Qayumov Baxtiyor Zokirjon o‘g‘li</b>	
Kichik maktab yoshidagi bolalar nutqining fonematik rivojlanishi .....	70
<b>Qurbonova Sevara Suyunovna</b>	
Mikrobiologiya ta‘limida individual pedagogik texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari .....	74
<b>Raxmatov Oxunjon Soibjonovich</b>	
“Estetik tarbiya”, “kreativ kompetensiya”, “estetik tarbiya mexanizmlari” tushunchalarining konseptual asoslari.....	79
<b>Saidova Feruza Akramovna</b>	
Zamonaviy ta‘lim jarayonida neyropedagogika yordamida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.....	84
<b>Sidiqova Yulduz Sobirovna</b>	
“So‘nggi jadid” Begali Qosimovning ilmiy-pedagogik merosi.....	88
<b>Toxirova Dilshoda Inom qizi</b>	
Ona tili darslarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar ustida ishlash .....	92
<b>Turg‘unova Nilufar Muxiddin qizi</b>	
Ingliz, golland va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning lingvostatistik xususiyatlari.....	96
<b>Xaydarova Go‘zalxon</b>	



Maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda yumshoq ko'nikmalarning ahamiyati.....	101
<i>Xolmatova Dilshoda Sherali qizi</i>	
Farzandlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda oilaning pedagogik imkoniyatlari .....	105
<i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>	
Yoshlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali sotsial manipulyativ ta'sirlarga psixologik barqarorlikni shakllantirish.....	109
<i>Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna</i>	
O'quvchilarda modellashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadigan faoliyat usullari .....	114
<i>Abdurazzaqov O'ktam Abduqayumovich</i>	
Dizartriya shakllarining klinik-patogenetik tahlili va differensial diagnostikasi .....	120
<i>Axmedova V. T.</i>	
Boshlang'ich sinflarda fanlararo yondashuvga asoslangan integrativ topshiriqlar ishlab chiqishning uslubiy asoslari.....	127
<i>Elmurodova Inoyat Abdumutalibovna</i>	
Deviant xulq-atvorli o'smirlar ijtimoiylashuvining psixologik determinantlari.....	132
<i>Elov Ziyodullo Sattorovich</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida talabalar o'quv natijalarini baholashning pedagogik modeli.....	138
<i>Ernazarov Mirzohid Yo'ldosh o'g'li</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi .....	145
<i>Mamadaliyeva Zarina Raxmat qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv tilshunoslikni joriy etish masalalar .....	150
<i>Mamatova Gulshan Amankulovna</i>	
Doston musiqiy merosini o'rganishni uslubiy takomillashtirish mazmuni.....	153
<i>Qo'shayev Ilhom Axtamovich, Nasirova Sevinch Ismatovna</i>	
"Elektr yoritish" fanida mustaqil ta'limning zamonaviy shakllari.....	157
<i>Nasretdinova Feruza Nabiyeвна</i>	
Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish .....	162
<i>Nazarova Dildora Asatovna, Kuchkorova Robiya Shuxrat qizi</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	167
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
A Methodological Model for Developing Pedagogical Reflection in Pre-Service EFL Teachers.....	172
<i>Rahimberdiyeva Maftuna Rakhimberdi kizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzining kasbiy kompetentlikka ta'siri .....	177
<i>Raximova Saboxat Qaxramon qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda interaktiv texnologiyalar va faol ta'lim metodlarining samaradorligi .....	182
<i>Safarova Nigora Nasilloevna</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida interfaol usullarning mazmuni, turlari va funksional ahamiyati.....	190
<i>Safarova Soliha Ilhomovna</i>	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati... 196	
<i>Saotmuratova Zebo Yuldash qizi</i>	
Musiqqa ta'limida interfaol metodlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	200
<i>Saparov Raxim Muratbayevich</i>	
Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida.....	204
<i>Xolmatova Yodgoroy Baxtiyorjon qizi</i>	
Energetika fanlarini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik afzalliklari.....	208
<i>Zoxidov Iqboljon Zokirjonovich</i>	
Методическая модель контекстуального обучения в формировании лингвокультурной компетенции при обучении русскому языку в национальных группах .....	213
<i>Рустамова Ферузaxon Махмуджановна</i>	

Integrating Artificial Intelligence into EFL Academic Writing Instruction: Opportunities, Challenges, and Pedagogical Implications.....	218
<a href="#">Allamurodov Elyor Tursun ugli</a>	
Sahna nutqida adabiy tur va janrlarning metodik talqini.....	223
<a href="#">Dilrabo Jumanova</a>	
Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim ekotizimi: imkoniyatlar va xavflar .....	227
<a href="#">Oqil Ochilov Lutfullo o'g'li</a>	
Z avlod bilan ishlashda ta'lim va tarbiyaga oid zamonaviy tendensiyalar .....	232
<a href="#">Ravshanov Sanjar Tolibjonovich</a>	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati...	235
<a href="#">Saotmurotova Zebo Yuldash qizi</a>	
Tarixiy-ilmiy materiallar va zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining geometrik tafakkurini rivojlantirish metodikasi.....	239
<a href="#">Toshpulatova Mamura Ismailovna, Mannonova Dilafro'z Ravshan qizi</a>	
Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish va muvofiqlashtirish ...	244
<a href="#">Xakimov Abdug'ulom Soyibjonovich</a>	

# DIZARTRIYA SHAKLLARINING KLINIK-PATOGENETIK TAHLILI VA DIFFERENSIAL DIAGNOSTIKASI

Axmedova V. T.

Andijon davlat pedagogika instituti,  
Maxsus pedagogika kafedrasida assistent-o'qituvchisi

ORCID ID: 0009-003-6218-0270

**Annotatsiya:** Kirish: Dizartriya - nutq apparati innervatsiyasining organik buzilishi natijasida yuzaga keladigan, artikulyatsiya, fonatsiya va prosodikaning kombinatsiyalashgan buzilishlari bilan xarakterlanuvchi polietiologik neyrogen kasallikdir.

**Maqsad:** Ushbu maqolada dizartriyaning kortikal, subkortikal, serebellar, bulbar va psevdobulbar shakllarining klinik-patogenetik mexanizmlarini, differensial diagnostik mezonlarini va zamonaviy instrumental tekshiruv usullarining diagnostik ahamiyatini nazariy jihatdan tizimli tahlil qilish ko'zda tutilgan.

**Material va usullar:** Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, neyroanatomik usul, klinik-neyrofizilogik yondashuv va tizimli qiyosiy tahlil usullari qo'llanilgan.

**Natijalar:** Dizartriyaning beshta asosiy shakli o'zaro 16 ta klinik parametr bo'yicha taqqoslandi. Har bir shaklning patognomonik belgilari aniqlangan: kortikal shaklda tovushlarning selektiv buzilishi, subkortikal shaklda giperkinezlar va prosodika buzilishi, serebellar shaklda skandirovka nutq, bulbar shaklda mushak atrofiyasi va disfagiya, psevdobulbar shaklda esa spastik paralich va oral avtomatizm reflekslari ustunlik qiladi.

**Xulosa:** Differensial diagnostika reabilitatsiya samaradorligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Aniq tashxis qo'yish klinik baholash, neyrovizualizatsiya (MRI, KT) va neyrofizilogik tekshiruvlar (EMG, ENG) majmuasini talab qiladi.

**Kalit so'zlar:** dizartriya, kortikal dizartriya, subkortikal dizartriya, serebellar dizartriya, bulbar sindrom, psevdobulbar sindrom, patogeneza, differensial diagnostika.

**Abstract:** Introduction: Dysarthria is a polyetiological neurogenic disorder caused by organic impairment of the innervation of the speech apparatus and characterized by combined disturbances of articulation, phonation, and prosody.

**Aim:** The aim of this article is to provide a systematic theoretical analysis of the clinical-pathogenetic mechanisms, differential diagnostic criteria, and diagnostic significance of modern instrumental examination methods in cortical, subcortical, cerebellar, bulbar, and pseudobulbar forms of dysarthria.

**Materials and Methods:** The study employed literature review, neuroanatomical analysis, a clinical-neurophysiological approach, and systematic comparative analysis.

**Results:** Five major forms of dysarthria were compared across 16 clinical parameters. Pathognomonic features of each form were identified: selective sound impairment in cortical dysarthria, hyperkinesia and prosodic disorders in subcortical dysarthria, scanning speech in cerebellar dysarthria, muscle atrophy and dysphagia in bulbar dysarthria, and spastic paralysis with oral automatism reflexes in pseudobulbar dysarthria.

**Conclusion:** Differential diagnosis is a key factor determining the effectiveness of rehabilitation. Accurate diagnosis requires a combination of clinical assessment, neuroimaging (MRI, CT), and neurophysiological examinations (EMG, ENG).

**Key words:** dysarthria, cortical dysarthria, subcortical dysarthria, cerebellar dysarthria, bulbar syndrome, pseudobulbar syndrome, pathogenesis, differential diagnosis.



**Аннотация:** Введение: Дизартрия - это полиэтиологическое нейрогенное расстройство, возникающее вследствие органического нарушения иннервации речевого аппарата и характеризующееся сочетанными нарушениями артикуляции, фонации и просодики.

Цель: Целью данной статьи является системный теоретический анализ клинико-патогенетических механизмов, критериев дифференциальной диагностики и диагностической значимости современных инструментальных методов обследования при корковой, подкорковой, мозжечковой, бульбарной и псевдобульбарной формах дизартрии.

Материалы и методы: В исследовании использованы анализ научной литературы, нейроанатомический метод, клинико-нейрофизиологический подход и системный сравнительный анализ.

Результаты: Пять основных форм дизартрии были сопоставлены по 16 клиническим параметрам. Выявлены патогномичные признаки каждой формы: селективное нарушение звукопроизношения при корковой дизартрии, гиперкинезы и нарушения просодики при подкорковой форме, скандированная речь при мозжечковой форме, мышечная атрофия и дисфагия при бульбарной форме, а также спастический паралич и рефлекс орального автоматизма при псевдобульбарной форме.

Заключение: Дифференциальная диагностика является ключевым фактором, определяющим эффективность реабилитации. Точная постановка диагноза требует комплексного применения клинической оценки, нейровизуализации (МРТ, КТ) и нейрофизиологических исследований (ЭМГ, ЭНГ).

**Ключевые слова:** дизартрия, корковая дизартрия, подкорковая дизартрия, мозжечковая дизартрия, бульбарный синдром, псевдобульбарный синдром, патогенез, дифференциальная диагностика.

## KIRISH

Dizartriya - bu nutq ishlab chiqarish uchun mas'ul bo'lgan nerv tuzilmalarining (markaziy va periferik motor neyronlar, nerv-mushak sinapslari) organik shikastlanishi oqibatida yuzaga keladigan nutqning artikulyatsion-fonatsion buzilishidir. Zamonaviy nevrologiya va logopediyada dizartriya muammosi o'zining yuqori tarqalganligi, klinik polimorfizmi va reabilitatsiyaning murakkabligi tufayli dolzarb bo'lib qolmoqda.

Dizartriya turli yoshdagi populyatsiyalarda, ayniqsa bolalar nevrologiyasida (bolalar miya falaji - BMF) va kattalar nevrologiyasida (insult, travmatik miya shikastlanishi, neyrodegenerativ kasalliklar) keng tarqalgan. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, neyrodegenerativ kasalliklar bilan bog'liq dizartriya holatlari keksa yosh populyatsiyasida ortib bormoqda. Ushbu holat dizartriya shakllarini aniq differensial tashxislash va patogenetik jihatdan asoslangan reabilitatsiya strategiyalarini ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqaradi.

Dizartriya atamasi ilk bor 1860-yillarda fransuz nevrologi Armand Trousseau tomonidan kiritilgan bo'lib, u bu atamani artikulyatsiyaning buzilishlarini ifodalash uchun ishlatgan. Keyingi asrda dizartriyaning klinik tasnifi va patogenetik mexanizmlari M.S. Margulis, E.N. Vinarskaya, L.A. Danilova, Ye.M. Mastjukova va boshqalar tomonidan chuqur rivojlantirildi. O'tgan asrning ikkinchi yarmida H. Darley, A.E. Aronson va J.R. Brown tomonidan ishlab chiqilgan Mayo klinikasi tasnifi hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Zamonaviy neyrovizualizatsiya usullarining rivojlanishi dizartriyaning patogenetik mexanizmlarini yanada chuqurroq tushunish imkonini bermoqda.

Zamonaviy neyroanatomik tushunchalarga ko'ra, dizartriyaning shakli bevosita markaziy nerv tizimining zararlanish o'chog'ining lokalizatsiyasiga bog'liq. Dizartriyaning asosiy shakllari quyidagi tuzilmalarning zararlanishi natijasida rivojlanadi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi dizartriyaning beshta asosiy shaklining klinik xususiyatlari, patogenetik mexanizmlari va differensial diagnostik mezonlarini tizimli tahlil qilish, shuningdek, zamonaviy instrumental usullarning diagnostik imkoniyatlarini nazariy jihatdan baholashdan iborat. Maqolada quyidagi vazifalar ko'zda tutilgan:

- (1) har bir shaklning klinik-patogenetik xususiyatlarini aniqlashtirish;
- (2) differensial diagnostika mezonlarini tizimlashtirish;
- (3) instrumental tekshiruv usullarining diagnostik ahamiyatini asoslash;
- (4) reabilitatsiya strategiyalarining patogenetik asoslanganligini nazariy jihatdan isbotlash.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Dizartriya muammosi nevrologiya, logopediya va maxsus pedagogika fanlarida uzoq yillardan buyon o'rganib kelinayotgan dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu nutq buzilishining etiologiyasi, patogenezi, klinik shakllari hamda korreksion-reabilitatsion yondashuvlari ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Dizartriya nazariyasining rivojlanishida E.N. Vinarskayaning ilmiy ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Olim dizartriyaning markaziy va periferik nerv tizimining organik shikastlanishi natijasida yuzaga keladigan murakkab nutq buzilishi sifatida tavsiflab, uning klinik shakllari va diagnostik mezonlarini batafsil yoritgan. Ye.M. Mastyukova esa bolalar serebral falaji bo'lgan bolalarda uchraydigan dizartrik buzilishlarning klinik-pedagogik xususiyatlarini o'rganib, korreksion ishlarning samarali usullarini ishlab chiqqan.

A.R. Luriya oliy nerv faoliyati va nutq funksiyalarining neyropsixologik asoslarini tadqiq etib, bosh miya po'stlog'ining turli qismlari zararlanishi natijasida yuzaga keladigan nutq buzilishlarini ilmiy asoslab bergan. Uning tadqiqotlari kortikal dizartriyaning patogenetik mexanizmlarini tushunishda muhim nazariy manba hisoblanadi. L.A. Danilova tomonidan esa dizartrik bolalarda nutq va psixik rivojlanishni korreksiyalash metodlari ishlab chiqilgan.

Xorijiy tadqiqotchilar H. Darley, A.E. Aronson va J.R. Brown tomonidan ishlab chiqilgan Mayo klinikasi tasnifi dizartriyaning zamonaviy klinik klassifikatsiyasining asosini tashkil etadi. Mazkur tasnifda dizartriyaning kortikal, subkortikal, serebellar, bulbar va psevdobulbar shakllari zararlanish o'chog'ining lokalizatsiyasiga ko'ra tavsiflangan. J.R. Duffy dizartriyaning differensial diagnostikasi va klinik boshqaruviga oid tadqiqotlarida motor nutq buzilishlarini baholashning zamonaviy mezonlarini taklif etgan.

So'nggi yillarda H. Ackermann tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda miyachaning nafaqat harakat koordinatsiyasi, balki nutqni rejalashtirish va prosodik boshqarishdagi o'rni ham ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

S. Pinto va hamkorlari Parkinson kasalligida kuzatiladigan subkortikal dizartriyaning klinik xususiyatlarini tahlil qilib, prosodika va ovoz buzilishlarining o'ziga xos jihatlari ko'rsatib berganlar.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, dizartriyaning turli shakllari klinik belgilari va patogenetik mexanizmlariga ko'ra bir-biridan sezilarli darajada farqlanadi. Shu sababli aniq differensial diagnostika olib borish hamda patogenetik asoslangan korreksion-reabilitatsion yondashuvlarni ishlab chiqish zamonaviy logopediya va nevrologiyaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlashda quyidagi ilmiy yondashuv va tahlil usullari qo'llanildi:

1. **Adabiyotlar tahlili usuli** – dizartriya muammosiga oid 30 dan ortiq ilmiy manbalar (shu jumladan monografiyalar, darsliklar va indekslangan jurnallar) tahlil qilindi. Asosiy e'tibor E.N. Vinarskaya, M.R. Lvov, L.S. Volkova, R.D. Trifonova, A.R. Luriya, H. Darley, F. Darley, J. Duffy va boshqalarning fundamental ishlariga qaratildi.
2. **Neyroanatomik usul** – afferent va efferent yo'llar, kranial nervlar, po'stloq osti va kortikal markazlarning zararlanish darajasi hamda uning nutq funksiyasiga ta'siri o'rtasidagi bog'liqlik nazariy jihatdan o'rganildi. Ushbu usul asosida zararlanish o'chog'ining lokalizatsiyasi bilan klinik simptomlar o'rtasidagi korrelyatsiya aniqlandi.
3. **Klinik-neyrofiziologik yondashuv** - dizartrik bemorlarda kuzatiladigan yuqori nerv faoliyati, reflektor soha, mushak tonusi va koordinatsiyadagi o'zgarishlar qiyoslandi. Ushbu yondashuv adabiyotlarda keltirilgan klinik kuzatuvlar asosida amalga oshirildi.
4. **Tizimli qiyosiy tahlil** - jadval shaklida dizartriyaning 5 ta asosiy shakli 16 ta klinik parametr bo'yicha taqqoslandi.
5. **Vaziyatli klinik misollar** - nevrologiya va defektologiya amaliyotida uchraydigan tipik holatlar (masalan, BMF, insultdan keyingi davr, miya o'smasi va boshqalar) asosida har bir shaklning prototipik xususiyatlari umumlashtirildi. Ushbu misollar adabiyotlardan olingan umumlashtirilgan ma'lumotlarga asoslangan bo'lib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Dizartriyaning barcha shakllari uchun umumiy bo'lgan klinik belgilarga quyidagilar kiradi:

- tovushlarning noaniq, loyqa, differensiallashmagan talaffuzi;
- nutq tushunarililigining pasayishi (o'rtacha va og'ir shakllarda);



- ovoz sifatining o'zgarishi (kuchsiz, bo'g'iq, xirillagan yoki siqilgan);
- nutq nafasining ritmi va chuqurligining buzilishi;
- prosodik komponentlarning (intonatsiya, melodika, pauzalar) buzilishi.

**Patogenez.** Kortikal dizartriya pastki frontal girus (Broka sohasi) yoki premarkaz qavatning afferent (post-markaz) va efferent (premarkaz) zonalarining bir tomonlama (kamdan-kam hollarda ikki tomonlama) zararlanishi natijasida rivojlanadi. Ushbu shaklda nutq harakat dasturini rejalashtirish va bajarilishining eng nozik komponentlari buziladi.

**Klinik xususiyatlar.** Kortikal dizartriyaning asosiy klinik belgilari:

- tovushlarning tanlab (selektiv) buzilishi - asosan artikulyatsiyasi murakkab undoshlar (r, l, sh, ch, j, s, z) zararlanadi;
- ovoz va nafas buzilishlari yengil yoki deyarli kuzatilmaydi;
- nutq sur'ati normal, lekin ayrim tovushlarda "qoqilish" turidagi apraksik elementlar kuzatilishi mumkin;
- mushaklarda atrofiya va parez kuzatilmaydi; reflekslar saqlangan.

Nutqni tushunish (impressiv nutq) saqlangan. Ayrim mualliflar (A.R. Luriya, L.S. Tsvetkova) kortikal dizartriyaning "apraksik" yoki "afazik-artikulyatsion" buzilish deb ataydilar.

**Patogenez.** Subkortikal dizartriya bazal gangliylar (striatum, globus pallidus, substantia nigra, subthalamik yadro) va ularning yo'llari zararlanishi natijasida rivojlanadi. Eng ko'p uchraydigan sabablar - Parkinson kasalligi, Gantington xoreyasi, distoniya sindromlari, miya yallig'lanishi va toksik ensefalopatiyalardir.

**Klinik xususiyatlar.** Subkortikal dizartriya mushak tonusining o'zgaruvchanligi kuzatiladi: rigor va gipokineziya (parkinsonizm) yoki giperkinezlar (xoreya, atetoz, ballizm). Nutqning sur'ati va ritmi keskin buziladi: ba'zida "palanduz" tezlashuv (taxilaliya), ba'zida sekinlashuv (bradilaliya). Ovozning tebranishi va tremor (disfoniya) xarakterlidir. Prosodikaning yo'qolishi - monotonlik, ovozning pasayib borishi (akorizatsiya) kuzatiladi.

- Parkinson turida: nutq tovushlari xirillagan, xira, sokin; "monoton" va "kuchsiz" ovoz; palilaliya (so'z va bo'g'inlarning majburiy takrorlanishi) kuzatilishi mumkin.
- Xoreik turida: nutq ritmik emas, to'satdan ovoz chiqarish, jarangsizlanish va "to'xtab-to'xtab" gapirish; ekspiratsiya fonemasining uzilishi kuzatiladi.

**Patogenez.** Serebellar dizartriya miyacha (vermis yoki yarim sharlari) va uning efferent (dentatorubral, rubrospinal, fastigiospinal) hamda afferent (spinocerebellar) yo'llarining shikastlanishi natijasida rivojlanadi.

**Klinik xususiyatlar.** Serebellar dizartriyaning patognomonik belgisi - skandirovka nutq bo'lib, bunda bo'g'inlar teng bo'lmagan interval bilan ajratiladi ("no-o-t-a m-u-z-i-k-a" tipida). Nutqning sekinlashgan va sust sur'ati, intonatsiyaning tartibsiz o'zgarishi - urg'ularning noto'g'ri joylanishi, ovoz hajmi va balandligining nazoratsiz o'zgarishi (disprozodiya) kuzatiladi. Boshqa serebellar belgilar: ataksiya, tremor, dismetriya, nistagm, adiadokinez.

**Patogenez.** Bulbar dizartriya medulla oblongata yadrolari (nucleus ambiguus, n. hypoglossi, n. facialis) va IX, X, XI, XII kranial nervlarning periferik zararlanishi natijasida rivojlanadi. Bulbar sindromda ikkinchi motor neyronning o'limi denervatsiya atrofiyasiga va flassid (sust) paralichga olib keladi.

**Klinik xususiyatlar.** Bulbar dizartriya flassid paralich, mushaklar atrofiyasi va gipotoniya kuzatiladi. Nazolaliya (burun tusi) - yumshoq tanglay parezi tufayli yuzaga keladi. Disfagiya (yutish buzilishi) og'ir darajada bo'ladi; dizartriya og'ir kechadi, nutq deyarli tushunarsiz bo'ladi; sialoreya (so'lak oqishi) ko'p hollarda kuzatiladi. Tilda fasikulyatsiyalar (mushak tolalarining tartibsiz qisqarishi) bulbar shaklga xos bo'lib, bu psevdobulbardan muhim farqlovchi belgi hisoblanadi.

**Patogenez.** Psevdobulbar dizartriya kortikonuklear yo'llarning ikki tomonlama shikastlanishi natijasida rivojlanadi. Birinchi motor neyronning ikki tomonlama zararlanishi ingibitiv ta'sirlarni kamaytiradi, bu esa reflekslarning kuchayishiga va mushaklarning spastik holatiga olib keladi.

**Klinik xususiyatlar.** Psevdobulbar dizartriya spastik paralich - mushak tonusining diffuz oshishi (spastisitet) kuzatiladi. Oral avtomatizm reflekslari: proboskis refleksi, palma-cho'k refleksi, yelka-bosh refleksi, emish refleksi. Majburiy emotsiyalar - patologik kulgi va yig'i (psevdobulbar sindromga xos). Dizartriya - nutqning tushunariligi o'rtacha va og'ir darajada. Disfagiya - asosan qattiq ovqatni yutish qiyinligi bilan namoyon bo'ladi (bulbarga qaraganda yengilroq). Tilning harakati cheklangan, "gotik" tanglay kuzatiladi.

**Bulbar va psevdobulbar farqlari.** Psevdobulbarda mushak atrofiyasi kuzatilmaydi, fasikulyatsiyalar bo'lmaydi, yutish buzilishi yengilroq, faringeal va palatal reflekslar saqlangan yoki kuchaygan, oral avtomatizm reflekslari mavjud. Bulbarda esa mushak atrofiyasi va fasikulyatsiyalar mavjud, reflekslar pasaygan yoki yo'q, oral avtomatizm reflekslari kuzatilmaydi.

Dizartriyaning besh shakli bo'yicha differensial diagnostika mezonlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

Dizartriyaning turli shakllari bir-biridan zararlangan neyron darajasi (birinchi motor neyron, ikkinchi motor neyron, miyacha, bazal gangliylar yoki kortikal integratsiya markazlari) va natijada yuzaga keladigan mushak disfunktsiyasining turi (flassid, spastik, atonik, giperkinetik, ataksik) bilan farqlanadi.

Kortikal dizartriya nutq harakat dasturini rejalashtirish va bajarilishining eng nozik komponentlarini buzadi. Bu periferik mushaklarning kuchi va reflekslarini o'zgartirmaydi, shuning uchun "markaziy" tipdagi yengil dizartriya deb ataladi. A.R. Luriyaning ta'kidlashicha, kortikal dizartriya ko'pincha afferent va efferent apraksiya bilan aralashadi va uni "apraksik dizartriya" deb atash mumkin.

Subkortikal dizartriya bazal gangliylar sistemasi – avtomatik prozodik modulyatsiyalar (balandlik, tempo, ritm) va ovoz tovushini silliq boshqarish buzilishi bilan bog'liq. Ularning zararlanishi tonus o'zgaruvchanligi va giperkinezlarga olib keladi. Darley va boshqalarning (1975) klassifikatsiyasiga ko'ra, subkortikal dizartriya "giperkinetik dizartriya" va "gipokinetik dizartriya"ga bo'linadi. Parkinson dizartriyasining patognomonik belgisi - "monoton" va "kuchsiz" ovozdir.

Serebellar dizartriya - miyachaning asosiy funksiyasi harakatlarni vaqt va fazoda muvofiqlashtirishdir. Serebellar dizartriyada "skandirovka" nutq patognomonik belgi hisoblanadi. Zamonaviy tadqiqotlar (Ackermann, 2008) shuni ko'rsatadiki, miyachaning nafaqat motor, balki kognitiv funksiyalarda (nutqni rejalashtirish, prozodik modulyatsiyalar) ham muhim roli mavjud.

Bulbar va psevdobulbar dizartriya - bu ikki shakl klinik jihatdan o'xshash bo'lsa-da, patogenetik mexanizmlari tubdan farq qiladi. Bulbarda ikkinchi motor neyronning o'limi denervatsiya atrofiyasiga va flatsid paralichga olib keladi. Psevdobulbarda esa birinchi motor neyronning ikki tomonlama zararlanishi inhibitiv ta'sirlarni kamaytiradi, bu esa reflekslarning kuchayishiga va mushaklarning spastik holatiga olib keladi. Differensial diagnostikada eng muhim belgi - mushak atrofiyasi va fasikulyatsiyalarning mavjudligi (bulbar uchun xos) yoki yo'qligi (psevdobulbar uchun xos).

Aniq differensial tashxis qo'yish uchun klinik ko'rikdan tashqari instrumental usullar muhim ahamiyatga ega.

**Magnit-rezonans tomografiya (MRI)** o'choqning lokalizatsiyasini aniq aniqlash imkonini beradi: miya poyasi, qobiq osti (bazal gangliylar, talamus), kortikal atrofiya, miyacha infarkti yoki atrofiyasi. O'tkir insultda DWI rejimi ayniqsa qimmatlidir.

**Elektromiografiya (EMG)** bulbardagi denervatsiyani (fibrilatsiya potentsiallari, keskin musbat to'lqinlar) tasdiqlaydi va subkortikal shaklda giperkinezlar (ritmik yoki aritmik bo'shatishlar)ni aniqlaydi.

**Elektronistagmografiya (ENG)** serebellar shaklda nistagmni obyektiv qayd qilish imkonini beradi.

**Logopedik protokollar (FRAP, Frenchay Dysarthria Assessment)** har bir shaklga xos buzilish profilini aniqlashda yuqori sezuvchanlikka ega. FDAning asosiy afzalligi – standartlashtirilganligi va takrorlanuvchanligidir.

Differensial diagnostika natijalariga asoslangan terapevtik yondashuvlar quyidagilardan iborat:

**Kortikal dizartriya** - logopedik mashg'ulotlarda artikulyatsion gimnastika va tovushlarni differensiallashtirish asosiy o'rin tutadi. Afazik buzilishlar bo'lsa, nutqni tushunish va ifodalash ustida alohida ishlash kerak.

**Subkortikal dizartriya** - farmakoterapiya (parkinsonizmida levodopa, giperkinezda antixolinergiklar, tetra-benazin) bilan birga ovoz va nafas mashqlari, ritmik stimulyatsiya qo'llaniladi. Lee Silverman Voice Treatment (LSVT) - Parkinson dizartriyasida ovoz balandligi va prosodikani yaxshilash uchun samarali usul hisoblanadi.

**Serebellar dizartriya** - prozodiya va koordinatsiyani yaxshilash maqsadida vizual ritmik signallar ("metronom") bilan nutq mashqlari, kompyuterlashtirilgan biofeedback tizimlari qo'llaniladi. Serebellar ataksiyani davolashda amantadin va buspirone preparatlarining samaradorligi ko'rsatilgan.

**Bulbar dizartriya** - asosiy e'tibor aspiratsion pnevmoniyaning oldini olishga qaratiladi: ovqatlanishni to'g'rilash (prob bilan oziqlantirish, qalinlashtirilgan konsistensiya), yutish mashqlari. Logopedik mashg'ulotlarda mushaklarning charchashiga yo'l qo'ymaslik muhim – mashg'ulotlar qisqa (10-15 daqiqa), lekin tez-tez (kuniga 4-5 marta) o'tkazilishi kerak.

**Psevdobulbar dizartriya** - bulbardan farqli ravishda, psevdobulbarda spastik mushaklarni bo'shatish muhim: passiv massaj, relaksatsion gimnastika, antispastik preparatlar (baklofen, tizanidin). Oral avtomatizm reflekslarini kamaytirish uchun muz bilan massaj, artikulyatsion va nafas mashqlari qo'llaniladi.



Differensial diagnostikada xatoliklar terapevtik muvaffaqiyatsizlikka va nevrologik holatning yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Eng ko'p uchraydigan xatolar:

**Bulbar va psevdobulbar dizartriyasini aralashtirish** - bulbar dizartriya spastik mushaklar uchun qo'llaniladigan kuchli artikulyatsion mashqlar mushaklarning charchashiga va aspiratsiya xavfining oshishiga olib keladi. Aksincha, psevdobulbarda passiv massaj kutilgan samarani bermaydi.

**Kortikal dizartriyaning afaziya bilan almashtirish** - bu logopedik korreksiya strategiyasining noto'g'ri tanlanishiga olib keladi.

**Serebellar dizartriyaning intoksikatsion ensefalopatiya deb noto'g'ri baholash** - bu asosiy kasallik (masalan, miyacha o'smasi)ning o'z vaqtida tashxis qo'yilmasligiga olib keladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

- Dizartriya** - neyrogen tabiatli polimorf nutq buzilishi bo'lib, uning shakli bevosita zararlanish o'chog'ining lokalizatsiyasiga bog'liq. Zamonaviy neyroanatomik tasnifga ko'ra, dizartriyaning beshta asosiy shakli ajratiladi: kortikal, subkortikal, serebellar, bulbar va psevdobulbar.
- Kortikal dizartriya** - pastki frontal va premarkaz qavatning bir tomonlama shikastlanishida yuzaga keladi, selektiv tovush buzilishi (r, l, sh, ch, j, s, z) bilan kechadi, atrofiya va refleks o'zgarishlari kuzatilmaydi. Nutq harakat dasturining rejalashtirilishidagi buzilishlar bilan xarakterlanadi.
- Subkortikal dizartriya** - bazal gangliylarning disfunktsiyasi bilan bog'liq bo'lib, giperkinezlar (parkinsonizm, xoreya), tonus o'zgarishi va prosodikaning jiddiy buzilishi (monotonlik, akorizatsiya) bilan xarakterlanadi. Avtomatik prozodik modulyatsiyalarning buzilishi asosiy patogenetik mexanizmdir.
- Serebellar dizartriya** - miyacha shikastlanishida skandirovka nutq, ataksiya va koordinatsiyaning buzilishi bilan kechadi. Nutq vaqt va fazoviy koordinatsiyaning buzilishi tufayli "sakrab" eshitiladi.
- Bulbar dizartriya** - medulla oblongata va IX-XII kranial nervlarning periferik zararlanishi natijasida mushak atrofiyasi, flatsid paralich va og'ir disfagiya olib keladi. EMGda denervatsiya o'zgarishlari patognomonik hisoblanadi.
- Psevdobulbar dizartriya** - kortikonuklear yo'llarning ikki tomonlama zararlanishida spastik paralich, oral avtomatizm reflekslari va majburiy emotsiyalar bilan namoyon bo'ladi. Bulbardan farqli belgilar: atrofiya va fasikulyatsiyalarning yo'qligi, reflekslarning saqlanib qolishi.

Differensial diagnostika bemorning hayot sifati va rehabilitatsiya samaradorligini belgilaydigan muhim bosqichdir. Aniq tashxis qo'yish klinik baholash (logopedik va nevrologik protokollar) hamda instrumental tekshiruvlarni (MRI, EMG, ENG) birgalikda qo'llashni talab qiladi. Differensial diagnostikadagi xatoliklar terapevtik muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi mumkin.

Rehabilitatsiya strategiyasi patogenetik jihatdan asoslangan bo'lishi kerak:

- kortikal shaklda artikulyatsion gimnastika;
- subkortikal shaklda farmakoterapiya va LSVT;
- serebellar shaklda ritmik stimulyatsiya;
- bulbar shaklda aspiratsiyaning oldini olish va mushaklarni toliqtirmaydigan mashqlar;
- psevdobulbar shaklda antispastik terapiya va reflekslarni kamaytirish.

Kelgusida tadqiqotlar neyrogenetik va molekulyar mexanizmlarni aniqlashga, har bir dizartriya shakli uchun xos neyroreabilitatsiya protokollarini ishlab chiqishga, shuningdek, telelogopediya va kompyuterlashtirilgan biofeedback tizimlarining samaradorligini baholashga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vinarskaya E.N. Dysarthria / E.N. Vinarskaya. - M.: AST, 2005. - 141 p.
2. Mastuykova E.M. Speech disorders in children with cerebral palsy / E.M. Mastuykova, M.V. Ippolitova. - M.: Prosvetshenie, 1985. - 192 p.
3. Darley F.L. Dysarthria / F.L. Darley, A.E. Aronson, J.R. Brown // In: Clinical neuropsychology. - Philadelphia: W.B. Saunders, 1975. - P. 243-275.
4. Danilova L.A. Methods for correcting speech and mental development in children with cerebral palsy / L.A. Danilova. - L.: Medicine, 1977. - 112 p.
5. Luria A.R. Higher cortical functions in man / A.R. Luria. - M.: MSU, 1969. - 504 p.

6. Ayupova M.Yu. Logopedia / M.Yu. Ayupova. - Toshkent: NIF MSH, 2008. - 280 b.
7. Duffy J.R. Motor Speech Disorders: Substrates, Differential Diagnosis, and Management / J.R. Duffy. - 4th ed. - St. Louis: Elsevier, 2019. - 512 p.
8. Freed D.B. Motor Speech Disorders: Diagnosis and Treatment / D.B. Freed. - 3rd ed. - San Diego: Plural Publishing, 2018. - 326 p.
9. Love R.J. Neurology of Speech / R.J. Love, W.G. Webb. - 5th ed. - Philadelphia: Lippincott Williams & Wilkins, 2019. - 448 p.
10. Murdoch B.E. Dysarthria: A Physiological Approach to Assessment and Treatment / B.E. Murdoch. - Cheltenham: Nelson Thornes, 1998. - 384 p.
11. Ackermann H. Cerebellar contributions to speech production and speech perception: psycholinguistic and neurobiological perspectives / H. Ackermann // Trends in Neurosciences. - 2008. - Vol. 31(6). - P. 265-272.
12. Pinto S. Dysarthria in Parkinson's disease: a review / S. Pinto, C. Ozsancak, E. Tripoliti, S. Thobois, P. Limousin-Dowsey, P. Auzou // Journal of Neurology. - 2004. - Vol. 251(5). - P. 513-521.
13. Maxmudova M.S. Peculiarities of speech development in children with cerebral palsy / M.S. Maxmudova // Defectology. - 2021. - No. 2. - P. 23-28.
14. Sobirkhanovna M.M. The usage of non-traditional methods in speech therapy work with dysarthric children / M.M. Sobirkhanovna // International Journal of Early Childhood Special Education. - 2022. - Vol. 14(6). - P. 789-795.
15. Tursunboyevna A.V. Neuropsychological approach to the correction of dysarthria / A.V. Tursunboyevna // Modern education. - 2023. - No. 4. - P. 56-62.
16. Panchenko I.I. Dysarthria: etiology, pathogenesis, classification / I.I. Panchenko. - Kyiv: Health, 2019. - 168 p.
17. Lopatina L.V. Differentsialnaya diagnostika dizartrii / L.V. Lopatina, O.V. Pravdina. - SPb.: Detstvo-Press, 2019. - 208 s.
18. Shklovsky V.M. Neurorehabilitation: modern approaches / V.M. Shklovsky, A.S. Kadykov // Journal of Neurology and Psychiatry. - 2017. - Vol. 117(10). - P. 4-9.
19. Yorkston K.M. Management of Motor Speech Disorders in Children and Adults / K.M. Yorkston, D.R. Beukelman, E.A. Strand, M.R. McAuliffe. - 4th ed. - Austin: Pro-Ed, 2020. - 564 p.
20. Humbert I.A. Dysphagia in neurological disorders / I.A. Humbert, C. Robbins // Seminars in Speech and Language. - 2014. - Vol. 35(3). - P. 155-166.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(6)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.